

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil).– 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

OMONILLA MADAYEV – FIDOIY PEDAGOG

Mamadaliyeva Mamlakat Qaxramon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyotshunos va folklorshunos olim Omonilla Madayevning pedagogik faoliyati, shogirdlariga nasihatlari, ilm – fan sohasidagi fidoiyligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ruboiy, insoniylik, folklor, o'rik guli, fidoiylig.

OMONILLA MADAYEV – DEDICATED TEACHER

Mamadaliyeva Mamlakat Qaxramon qizi

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi
PhD student

Annotation. This article discusses the pedagogical activities of literary critic and folklore scholar Omonilla Madayev, his advice to his students, and his dedication in the field of science.

Keywords: rubaiyat, humanity, folklore, apricot flower, dedication.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymif-y2026v2i14/n09>

O'zbek folklorshunosligi va adabiyotiga salmoqli hissa qo'shgan Omonilla Madayev ilmiy faoliyat bilan birga insoniylik unvoniga sadoqatli inson edi. Minglab shogirdlarga ustozlik qildi. Ularni o'zlari kabi fidoiy pedagog qilib yetishtirdi. Olimning bergan saboqlarini talabalar hamon o'zgacha zavq bilan xotirlaydilar.

Akmal Jumamurodovning "Madayev deganlari shu" maqolasida: muallifning ustoz bilan ilk tanishuvi, dars jarayonlari, Madayevning talabalar bilan munosabati va o'qituvchilik uslubi haqida samimiy va hayajonli xotiralar bayon etilgan. Maqolada haqiqiy adabiyot o'qituvchisi qanday bo'lishi haqidagi fikrlar olim tomonidan aytib o'tilgan. O'quvchi "Ruboiy nima?" deb savol bersa, o'qituvchi "ruboiy" arab tilidagi "arbaun" dan olingan bo'lib, to'rt misradan iborat, tugal ma'no ifodalovchi; birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralari yoki to'rtala misrasi ham qofiyadosh falsafiy ruhdagi she'r desa va shu onning o'zida biror namuna o'qib bersa, mana bu chinakam adabiyot muallimining javobi bo'ladi [1]. Bundan tashqari, musiqa va adabiyot bir-birini doimo to'ldirib kelishi va har bir adabiyot muallimi biror musiqa asbobini chalishni bilsa, bu adabiyot fanining yanada qiziqarli va ta'sirli o'ta olishini ta'kidlagan. Notiqlik san'ati akademiyasi ta'lim muassasasi rahbari, professor Rahimboy Jumaniyozov "Omonulla muallimni xotirlab" maqolasida folklorshunos olimni haqiqat uchun doim kurashgani, xalqning farovonligi yo'lida tinimsiz mehnat olib borganini ta'kidlaydi. Fikrining isboti sifatida Jabbor Eshonqulning "Domla Omonilla Madayevdek har doim ham to'g'ri so'z bo'la olmadik. Haqsizlikka, adolatsizlikka, ko'zbo'yamachilikka, mahalliychilikka indamay qarab turaverdik" fikrlarini keltiradi. Bundan ko'rinadiki, Omonilla Madayev jamiyati rivojlanishi uchun kurasha oladigan, fidoiy inson. U haqida ko'plab shogirdlari to'lib-toshib gapiradi. Lekin ustoz portretiga go'zal chizmalarni Shukur Qurbonning "Omonulla Madayev saboqlari" kitobida uchratamiz.

Asar muqaddimasida: muallif shunday yozadi: "Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti pedagoglari orasida adabiyotshunos olim, "Do'stlik" ordeni sohibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Omonilla Madayev saboqlari hayotimda teran iz qoldirgan" [3-3]. Ustoz Omonilla Madayevning yosh pedagoglarga bergan maslahatlari har bir adabiyot o'qituvchisi uchun qo'llanma bo'la oladi. Ustoz Omonilla Madayev Cho'lponning ushbu gaplarini shoir qilib olgan va shogirdlariga shuni doimiy uqtirib borgan. Cho'lpon: "Adabiyotsiz millat-millatmas" shu fikrni aytib, shunday izohlaydi: "Kir kiyimni sovun bilan yuvsa, toza bo'ladi. Inson qalbi kir bo'lsa, u adabiyot bilan tozalanadi" [3-22]. Mana shu qalb tozalanishi uchun, o'qituvchi darsga qonini (mehrini) qo'shishi kerak [3-24]. Ustoz o'qituvchilikda eng avvalo, muallimning darsga munosabati birinchi o'rinda turishini, ikkinchi o'rinda esa metodika turishini ta'kidlaydi. Ustozning bu kabi nasihatlar har bir adabiyot muallimining kamolotga yetishi uchun narvon vazifasini bajaradi. Omonilla Madayev yurt ravnaqi uchun jon kuydirgan fidoiy pedagog va vijdonli, halol inson edi. Vaqt hech kimni ayamaganidek, Omonilla Madayevni ham oramizdan olib ketdi. Lekin uning ilmiy merosi, yuzlab maqolalari, pedagogik qo'llanmalari va ibratga arzigulik hayot yo'li qoldi. Kimdir darslaridagi saboqni eslasa, yana kimdir beminnat berilgan yordamni, yana kimdir oltinga teng nasihatlarini, yana kimdir "O'rik guli saylini" eslab, uning haqqiga duo qiladi. Shahnoza Madayeva tomonidan yaratilgan "Insoniylik unvoniga sadoqat" asari olim haqida qimmatli manbadir. Olima asarning nomlanishiga izoh berib, shunday deydi: "Omonilla Madayevning olimlik faoliyati uning insoniylik e'tiqodi bilan chambarchas bog'langan edi. 2018-yilning 1-iyulida namoyish etilgan "Ikki eshik orasi" ko'rsatuvi mehmoni bo'lgan Omonilla Madayev uning uchun eng muqaddas burch insoniylik unvoniga xiyonat qilmasdan yashash, deganliklarini" eslab o'tadi. U hech qachon millat taqdiriga befarq qaramagan, zero buyuk shoir Cho'lpon aytganidek: "Millatni uyg'otish-uyg'onganlarning vazifasi". Omonilla Madayev ham butun umr shu vazifa bilan yashashadi. "Olim har doim jamiyatda kechayotgan o'zgarishlarga, mavjud kamchiliklarga nisbatan o'zining teran, chuqur tahliliy munosabatini bildirib keldi va buni ochiq, o'tkir so'zlari bilan ifodaladi"[2-5]. Professor Yormat Tojiyevning eslashicha: "Har bir muammoning yechimini o'z vaqtida, to'g'ri hal qila oladigan, bu qadar tashabbuskor, g'amxo'r tashkilotchi, rag'batkor, talabchan, qat'iyatli, adolatli, rahmdil, talaba sog'lig'i, himoyasi uchun qo'rqmay ko'ndalang bo'la olishga tayyor rahbari - ustoz tarbiyachi, fakultet paxta shtabi xodimini ko'rgan emasman"[2-8]. U o'z xotiralari davomida yana bir ajoyib voqeani aytib o'tadi. Bir kuni "rahbarlar aylanishar ekan", degan gap tarqalib, Omonilla boshqarayotgan talabalar guruhi shiypondan 400 metr masofadagi katta paxta ekin maydonida terimga olib chiqildi. Terim boshlaganda, bir necha qizning boshi og'riy boshladi. Boshqalar ham qandaydir hiddan shikoyat qila boshladilar. Omonilla domla dala ichiga kirib bilsa, bu maydonga oldingi kun barg tushirish uchun ikkinchi marta dori sepilgan ekan. Domla darhol talabalarni chiqarib, shiyponga olib bordi ikkita yigitga markazga tushib qatiq topib kelishni buyuradi. Shu payt shiyponga sovxoz, tuman, viloyat rahbarlari kelib qolishadi" [2-9]. Talabalarni shiyponda ko'rgan rahbariyatni jahli chiqadi va Omonilla Madayevdan talabalarni dalaga chiqishini talab qiladi. Domla bunga javoban talabalarni ahvoli yaxshilansa, boshqa paxta maydonini ko'rsatishsa, tushlikdan keyin tushishini aytadi, bundan rahbarlar g'azablanib, hoziroq paxta dalasiga borishlarini buyuradi, lekin domla talabalarining ahvoli yaxshilansagina borishini aytib, talabalarni jon-jahdi bilan himoya qiladi[2-9]. Bundan ko'rinadiki, u haqiqatni doim ayta oladigan, zimmasidagi vazifasini sidqidildan bajaradigan fidoiy pedagog edi. Buni bir necha yillar davomida talabalar hayotini

o'z zimmasiga olib, bir oy davomida xalq og'zaki ijodi va shevashunoslik manbalarini to'plash uchun chiqilgan amaliyotlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu amaliyotlarga do'sti, qadrdoni Yormat Tojiyev ham hamrohlik qilgan. Ular birgalikda ikki marta O'sh-Jalolobodga, uch marta Denov, Boysun, Sari-Osiyo, Uzun, Sho'rchiga, yana Angren, Yozyovon, Bo'z, Xo'jand, Baxmal, Shahrizabz, Yakkabog', Pop, Buvayda, Bozorqo'rg'on. Yangiqo'rg'on (Samarqand viloyati), Bo'ka, Ohangaron. Chimkent, Ashxobod, Isfara kabi hududlar tili va urf-odatlarini o'rganishga birga borishgan [2-10]. U yerdagi xalq bilan go'zal muomila qila olgan, xalqimizning vakillaridan folklor va dialektologiyani noyob namunalarini yig'a olgan ijodkordir. Talabalar mehmondo'st xalqimizning turli urf-odatlari, marosimlari, go'zal folklor namunalarini yozib olishgan va chinakam sayohat zavqini his qilishgan. Omonilla Madayevning har bir inson bilan mehr bilan gaplashishi, o'zini tutishi, ashula hirgoyi qilishi, hozirjavobligi, vaziyatni baholay olishi va undan chiqish yo'llarini topa bilishi talabalar uchun zaruriy, hayotiy maktab edi. Talabalar nafaqat xalq og'zaki ijodini yig'dilar, balki Omonilla Madayev, Yormat Tojiyev kabi insonlardan hayotiy darslarni ham oldilar.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Jumamurodov A. Omonulla Madayev deganlari www.shu.kh-davron.uz
2. Madayeva Sh. Insonlik unvoniga sadoqat – adabiyotshunos olim Omonilla Madayev xotirasiga bitiklar. – Toshkent: 2020.
3. Shukur Qurbon. Omonulla Madayev saboqlari. – Toshkent: MERIYUS, 2013.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil). – 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.